PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ABDURAUF FITRAT BADIIY IJODIDA MILLIY UYG'ONISHNING SHAXS KONSEPSIYASI

Muradova Shodiya Zokir qizi
19-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23268278

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat badiiy tafakkurida milliy uyg‘onish hodisasi shaxsning ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Mavjud Fitratshunoslikda milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, milliy o‘zlik, ozodlik va ijtimoiy tanqid masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu tushunchalarni birlashtiruvchi shaxs modeli alohida tizim sifatida yetarlicha ajratilmagan. Tadqiqotning maqsadi “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Rahbari najot”, “Yurt qayg‘usi” va “Abulfayzxon” materiallari asosida Fitrat tasavvuridagi uyg‘onuvchi shaxsning badiiy-funksional belgilarini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, milliy uyg‘onish, shaxs konsepsiyasi, ijtimoiy subyekt, milliy o‘zlik, tafakkur, mas’uliyat, jadid adabiyoti, “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Rahbari najot”, “Yurt qayg‘usi”, “Abulfayzxon”.

XX asr boshidagi o‘zbek adabiy jarayonida Abdurauf Fitrat ijodi milliy tafakkurning yangilanishi bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni badiiy va publitsistik shakllarda ifodalagan hodisalardan biridir. Fitrat merosi nasr, dramaturgiya, mansura, she’riyat, ilmiy va publitsistik asarlarni qamrab oladi. Fitrat korpusi ham uning merosini janrlar kesimida tizimlashtirib, “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Abulfayzxon”, “Yurt qayg‘usi” kabi matnlarni alohida asarlar sifatida ko‘rsatadi.

Fitrat ijodini milliy uyg‘onish nuqtayi nazaridan o‘rganish yangi masala emas. Zamonaviy tadqiqotlarda uning milliy uyg‘onish, milliy o‘zlik, ijtimoiy-siyosiy tanqid va ma’rifatparvarlik qarashlari turli metodlar asosida tahlil qilingan. Milliy uyg‘onishning g‘oyaviy mazmunidan ko‘ra uning badiiy subyekti — fikrlaydigan, anglaydigan, mas’uliyatni his qiladigan va harakat qiladigan shaxs qanday yaratilgani tahlil qilamiz

Fitratshunoslikda Hamidulla Boltaboyevning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Uning Fitrat hayoti va ilmiy-adabiy merosiga bag‘ishlangan risolasida “Munozara”, “Yurt qayg‘usi”, “Abulfayzxon” kabi asarlar tahlil qilingan. Zamonaviy maqolalarda esa Fitratning milliy uyg‘onish va ijtimoiy-siyosiy qarashlari yangicha aspektlarda qayta ko‘rilmoqda. Shuning uchun ushbu maqolaning yangiligi mavjud tadqiqotlarni inkor etish emas, balki ularning kesishgan nuqtalarini shaxs konsepsiyasi atrofida qayta tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotda germenevtik, tarixiy-tipologik, qiyosiy va yaqin matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Fitratning birlamchi matnlari, xususan Fitrat korpusidagi raqamlashtirilgan asarlar va konkordans natijalari olindi. Korpus Fitrat asarlarini janrlar bo‘yicha jamlaydi hamda so‘zlarning kontekstda qo‘llanishini tekshirish imkonini beradi.

“Munozara”da Fitrat badiiy tafakkurida uyg‘onishning dastlabki sharti fikrlash ekanini ko‘rsatadi. Asarda masala tayyor hukm shaklida emas, qarama-qarshi fikrlar to‘qnashuvi orqali ochiladi. Shu sababli o‘quvchi ham tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, bahsning ma’naviy ishtirokchisiga aylanadi.

Fitrat korpusidagi “millatning” shakliga oid fikrlari “Munozara”da millatning xarob holatini ko‘tarish hamda millatning o‘z tiliga muvofiq alifbo masalasi kabi fikrlar mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, milliy muammo umumiy shikoyat tarzida emas, uni anglash va yechim izlashga qodir tafakkur masalasi qo'yiladi Shundan kelib chiqib, “Munozara”dagi shaxsni intellektual uyg‘onish subyekti deb belgilash mumkin. Uning asosiy belgisi — mavjud holatni tabiiy va o‘zgarmas deb qabul qilmaslik. Savol berish, taqqoslash va dalil talab qilish shaxsni passiv kuzatuvchidan faol fikr egasiga aylantiradi.

“Hind sayyohi bayonoti”da shaxs konsepsiyasi kuzatuvchi-narrator vositasida murakkablashadi. Sayyohning boshqa makon vakili sifatidagi pozitsiyasi Buxoro hayotiga ichki ko‘nikma bilan emas, tashqi va taqqoslovchi nigoh bilan qarash imkonini beradi. Natijada jamiyatning o‘z a’zolari odatiy deb qabul qilishi mumkin bo‘lgan holatlar qayta baholanadi.

“Millatning” so‘zi ushbu qissada bardosh, sabrsizlik, millatning mablag‘i, millat tinchligi va vatan obodligi kabi kontekstlarda keladi. Bu birliklar sayyohning kuzatuvlarini shaxsiy taassurotdan kengroq — jamiyatning umumiy holatini baholash darajasiga olib chiqadi.

“Rahbari najot”da insonning kamoloti bilim va tarbiya masalalari bilan bog‘lanadi. Fitrat uchun bilimning qadri uning shaxsiy manfaatga xizmat qilishida emas, insonning jamiyat oldidagi vazifasini anglashiga olib borishidadir. Shu sababli maqolada “bilimli inson” bilan “bilimining ijtimoiy oqibatini anglaydigan inson” o‘rtasidagi farq konseptual mezon sifatida taklif qilinadi. Shunday qilib, “Munozara”da ustuvor bo‘lgan tafakkur “Rahbari najot”da axloqiy-ijtimoiy mas’uliyatga ulanadi. Bu o‘tish maqolada taklif qilinayotgan shaxs modelining ikkinchi pog‘onasini yuzaga keltiradi.

“Yurt qayg‘usida murojaat va ritorik so‘roqlar vositasida Turonning holati shaxsiy iztirob darajasida beriladi. Undagi “Senga ne bo‘ldi?”, “Nechun...?” kabi takroriy savollar milliy tarix va bugungi holat o‘rtasidagi keskin kontrastni kuchaytiradi. Bu yerda milliy muammo tashqi siyosiy yoki tarixiy hodisa bo‘lib qolmaydi: u lirik subyektning ichki mas’uliyatiga aylanadi. Demak, Fitrat modelida uyg‘onishning muhim belgisi — yurt muammosini shaxsiy axloqiy muammo sifatida his qilishdir.

“Abulfayzxon” dramasida shaxs konsepsiyasi hokimiyat va tarixiy javobgarlik masalasiga ko‘chadi. Asarda xon, amaldorlar va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlar shaxsiy manfaat, qo‘rquv, xiyonat va hokimiyat uchun kurashning jamiyat taqdiriga ta’sirini ko‘rsatadi. Asarda Abulfayzxonning hukumat ishlarini bajara olmagani haqidagi hukmni, xon atrofidagi siyosiy munosabatlarni va hokimiyatning zo‘ravonlik bilan bog‘liq oqibatlarini ko‘rsatadi. Demak, drama shaxsning tarixiy mas’uliyati masalasini keskinlashtiradi: hokimiyat egasining shaxsiy qarorlari endi faqat uning taqdirini emas, butun siyosiy makonning taqdirini belgilaydi.

Shu nuqtada maqolaning uchinchi darajasi faol tarixiy shaxs konsepsiyasi yuzaga keladi. Bunday shaxs faqat anglabgina qolmaydi; u tarixiy jarayonga bevosita ta’sir qiluvchi kuchga ega. Fitrat tragediyasi esa bu kuch mas’uliyatsiz qo‘llanganda jamiyat qanday yemirilishini badiiy konflikt orqali ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, Fitrat badiiy tafakkuridagi milliy uyg‘onish subyektini uch pog‘onada tasniflash mumkin.

1) Intellektual shaxs — savol beradigan, taqqoslaydigan, mavjud holatni tanqidiy fikr bilan ko‘radigan subyekt. “Munozara” ushbu bosqichning asosiy matni sifatida namoyon bo‘ladi.

2) Axloqiy-ijtimoiy shaxs — anglangan muammoni shaxsiy mas’uliyat va ijtimoiy burch sifatida qabul qiladigan subyekt. “Hind sayyohi bayonoti”, “Rahbari najot” va “Yurt qayg‘usi” materiallari ushbu darajani turli janrlarda ifodalaydi.

3) Faol tarixiy shaxs — o‘z qarori va faoliyati bilan jamiyat yoki davlat taqdiriga ta’sir qiladigan subyekt. “Abulfayzxon”da hokimiyat egasining mas’uliyati aynan shu darajada dramatik tus oladi. Demak, Fitratdagi milliy uyg‘onish g‘oyalar majmui sifatida emas, shaxsning ijtimoiy subyektga aylanish jarayoni sifatida konseptuallashtirildi. “Hind sayyohi bayonoti”dagi sayyoh obrazi ijtimoiy voqelikni tashqi nigoh orqali qayta ko‘ruvchi va baholovchi narrativ subyekt sifatida talqin qilindi. “Yurt qayg‘usi”dagi milliy iztirob milliy muammoni shaxsiy javobgarlikka aylantiruvchi poetik mexanizm sifatida izohlandi. “Abulfayzxon”dagi hokimiyat masalasi shaxsning tarixiy javobgarligi bilan bog‘lanib, faol tarixiy shaxs bosqichi sifatida asoslandi.

Milliy uyg‘onish, ma’rifat, ijtimoiy tanqid va milliy o‘zlik haqidagi tadqiqotlarni shaxs konsepsiyasi atrofida birlashtirish imkonini beradi.

Abdurauf Fitrat badiiy tafakkurida milliy uyg‘onishning markazida shaxs turadi. Bu shaxs oddiy individual qahramon emas, balki jamiyatni anglash, milliy muammoni o‘z mas’uliyati sifatida qabul qilish va tarixiy jarayonga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega ijtimoiy subyektdir. “Munozara”da uning intellektual qatlami, “Hind sayyohi bayonoti” va “Rahbari najot”da axloqiy-ijtimoiy qatlami, “Yurt qayg‘usi”da milliy mas’uliyatning hissiy-ruhiy shakli, “Abulfayzxon”da esa faol tarixiy shaxs va hokimiyat mas’uliyati masalasi ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
2. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. Boltaboyev, H. Jadidlar: Abdurauf Fitrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 144 b.
4. Shomurodova, D. H. “Hind sayyohi bayonoti”da davr muammolarining badiiy talqini. – International Conference on Interdisciplinary Science, 2025. – B. 391–396.
5. Fitrat. Abulfayzxon. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. – 64 b.